UZCE
uzbek exchange




2023-YIL YANVAR-MAY OYLARI YAKUNLARI BO‘YICHA “O‘ZRVB” AJ BOZORLARI SHARHI

uzrvb_uz uzrvbinfo uz_ce_ www.uzrvb.uz


2023-yilning yanvar-may yakunlari bo‘yicha “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ (O‘zRVB) bozorlari sharhi

2023-yilning yanvar-may oylari davomida O‘zRVBda umumiy savdo hajmi **410,96 trillion so‘mni** tashkil etdi va o'tgan yilning shu ko'rsatkichiga nisbatan o'sish 67,31 foizga teng bo‘ldi.

O'zRVBda savdolar umumiy hajmi



O‘zRVB bozorlarining savdolar umumiy hajmidagi ulushi




Valyuta bozori

O'zRVB valyuta bozorida USD/UZS, EUR/UZS, RUB/UZS va CNY/UZS valyuta juftliklari bo'yicha spot operatsiyalar, shuningdek valyutaviy svop operatsiyalari amalga oshiriladi.

2023-yil boshidan buyon valyuta bozoridagi savdolarning umumiy hajmi **179,37 trillion so‘mni** tashkil etdi va o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichiga nisbatan o‘sish 52,58 foizga (117,55 trillion so‘m) teng bo‘ldi. Shu bilan birga, valyuta bozoridagi bitimlar ulushi umumiy savdo hajmining **43,65 foizini** tashkil etdi.

Valyuta bozoridagi savdo hajmining qiyosiy dinamikasi




Pul bozori

O‘zRVB pul bozori 1-kundan bir yilgacha muddatga mablag‘larni joylashtirish/jalb qilish bo‘yicha banklararo operatsiyalar, shuningdek, tijorat banklaridan bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha Markaziy bankning depozit auksionlari bilan ifodalangan.

2023-yilning yanvar-may oylarida pul bozoridagi savdolarning umumiy hajmi **188,42 trillion so‘mni** (*127,20 trln. so‘m – banklararo pul bozori, 61,22 trln. so‘m – Markaziy bankning depozit auksionlari*) tashkil etdi va o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan (92,03 trln. so‘m) 2 barobarga oshdi.

Pul bozoridagi bitimlar ulushi O'zRVBdagi savdolar umumiy hajmining **45,85 foizini** tashkil etdi, bu esa ushbu bozorga yetakchilik qilishga imkon berdi.


Pul bozoridagi savdolar umumiy hajmining qiyosiy dinamikasi




Hisobot davrida banklararo pul bozorida 127,20 trln. so‘mlik bitimlar tuzildi. Joylashtirish/jalb qilish muddati bir haftagacha bo‘lgan depozitlar 120,56 trln. so‘mni yoki bozor umumiy hajmining 94,78 foizini, shu jumladan bir kunlik (overnayt) depozitlari 84,00 trln. so‘mni, yoki umumiy hajmning 66,04 foizini tashkil etdi.

Qolgan bitimlar umumiy hajmi 6,65 trln.so‘m yoki umumiy hajmning 5,22 foiziga teng bo‘ldi.

Standartlashtirilgan davrlar bo'yicha 2023-yil yanvar-may oylarida banklararo pul bozori



“1-kun” muddatga joylashtirilgan (jalb qilingan) depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan daromadlilik



Hisobot davrida Markaziy bankning depozit auksionlarida tuzilgan bitimlar hajmi 61,22 trln. so‘mni tashkil etdi va daromadlilik Markaziy bankning asosiy stavkasi yaqinida shakllandi.

Qarz bozori

O‘zRVBning qarz bozorida davlat qimmatli qog'ozlari (DQQ) – Iqtisodiyot va moliya vazirligi obligatsiyalari va majburiyatlari, shuningdek, Markaziy bank obligatsiyalari bilan savdolar amalga oshiriladi.

Joriy yil 1-fevraldan boshlab ushbu bozorda market-meykerlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, “ASIA ALLIANCE BANK” ATB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Ipak yo‘li” AITB, “Turonbank” ATB, shuningdek, “Xalq banki” ATB market-meyker maqomiga ega bo‘ldi. Tegishli dasturga muvofiq, market-meykerlar oldi-sotdi kotirovkalarini shakllantirish orqali DQQ ikkilamchi bozorida likvidlikini ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.


Dastur MM-GB STANDARD, MM-GB MEDIUM i MM-GB PREMIUM maqomlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Bunda, tanlangan maqom qanchalik yuqori bo‘lsa, market-meyker ikki tomonlama kotirovkalar va spredning tor koridori (mos ravishda 0,3%, 0,28% va 0,26%) e’lon qilinadigan va saqlab turiladigan passiv bitimlar hajmi va DQQ chiqarishlarining minimal soni bo‘yicha ko‘proq majburiyatni o‘z zimmasiga oladi.

Bundan tashqari, joriy yil 14-fevraldan boshlab O‘zRVB platformasida DQQ T+2 hisob-kitob rejimida joylashtirib kelinmoqda.


Ushbu rejim doirasida auksionda sotib olingan DQQ bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar bitimlar tuzilgan kundan keyingi ikkinchi savdo kunida amalga oshirilishi belgilangan (bitimlar tuzish uchun mablag‘larni oldindan deponentlash talab qilinmaydi), bu esa savdo ishtirokchilari uchun o‘z pul mablag‘larini samarali va oqilona boshqarish imkonini beradi.

Hisobot davrida DQQ birlamchi bozorida 27,62 trln. so‘mlik qimmatli qog‘ozlar joylashtirildi. 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 30,83 trln. so‘mga teng bo‘lgan.


DQQ birlamchi bozorida savdolar hajmining qiyosiy dinamikasi



2023-yil yanvar-may oylarida DQQning muomala davri bo‘yicha joylashtirilishi




2023-yilning yanvar-may oylaridagi birlamchi auksionlar natijalariga ko‘ra, bozordagi ulushi yuqori bo‘lgan qisqa muddatli (muomala davri bir yilgacha bo‘lgan) DQQ bo‘yicha o‘rtacha tortilgan daromadlilik 15,91 foizdan 17,87 foizgacha o‘zgarib turdi.




Hisobot davrida DQQning ikkilamchi bozorida tuzilgan bitimlar hajmi **4,85 trln. so‘mni** tashkil etib, o‘tgan yilgi mos ko‘rsatkichga (4,82 trln. so‘m) nisbatan 0,03 trln.so‘mga ko‘paydi.

DQQ ikkilamchi bozori savdolar umumiy hajmining qiyosiy dinamikasi



Shuningdek, hisobot davrida **10,71 trln. so‘mlik** REPO bitimlari tuzildi. Ma'lumot uchun, 2022-yilning mos davridagi ko‘rsatkich 0,39 trln.so‘mga teng bo‘lgan.


REPO bitimlari bo‘yicha savdolar umumiy hajmining qiyosiy dinamikasi



Hisobot davrida DQQ bozoridagi savdolarning umumiy hajmi **43,17 trln. so‘mga** teng bo‘lib, 2022-yilgi mos ko‘rsatkichga (36,04 trln. so‘m) nisbatan 19,78 foizga ko‘proq bo‘ldi.

Qarz bozorida tuzilgan bitimlarning umumiy savdolar hajmidagi ulushi **10,51 foizni** tashkil etdi.

Qarz bozoridagi savdolar umumiy hajmining qiyosiy dinamikasi



Depozitariy

2023-yil 31-may holatiga ko'ra, O‘zRVB depozitariysi hisob registrlarida nominal qiymati bo'yicha saqlanayotgan joylashtirilgan DQQ hajmi o'tgan yilning shu ko'rsatkichiga nisbatan 28,80 foizga oshib, **27 627,40 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yil yanvar-may oylarida muomala davri kesimida muomala muddati bir yilgacha bo‘lgan DQQ ulushi ko‘proq bo‘ldi.

O‘zRVB depozitariysida hisobga olingan joylashtirilgan DQQ hajmi

mlrd.so’mda

Muomala davri	2022-yil 31-may holatiga	2023-yil 31-may holatiga	O‘zgarish
3-oygacha	17 100,00	5 500,00	-67,84%
3-oydan 6-oygacha	931,77	7 611,29	716,87%
6-oydan 1-yilgacha	1 296,52	2 952,80	127,75%
1-yildan 5-yilgacha	2 112,16	11 253,31	432,79%
5-yildan 10-yilgacha	10,00	310,00	3000,00%
Jami	**21 450,45**	**27 627,40**	**28,80%**

Emitentlar kesimida O‘zRVB depozitariysida hisobga olingan joylashtirilgan DQQ hajmi

Iqtisodiyot va moliya vazirligi

mlrd.so’mda

Muomala davri	2022-yil 31-may holatiga	2023-yil 31-may holatiga	O‘zgarish
3-oygacha	0,00	0,00	-
3-oydan 6-oygacha	931,77	4 611,29	394,90%
6-oydan 1-yilgacha	1 296,52	2 952,80	127,75%
1-yildan 5-yilgacha	2 112,16	11 253,31	432,79%
5-yildan 10-yilgacha	10,00	310,00	3000,00%
Jami	**4 350,45**	**19 127,40**	**339,67%**

Markaziy bank

mlrd.so’mda

Muomala davri	2022-yil 31-may holatiga	2023-yil 31-may holatiga	O‘zgarish
3-oygacha	17 100,00	5 500,00	-67,84%
3-oydan 6-oygacha	0,00	3 000,00	-
6-oydan 1-yilgacha	0,00	0,00	-
1-yildan 5-yilgacha	0,00	0,00	-
5-yildan 10-yilgacha	0,00	0,00	-
Jami	**17 100,00**	**8 500,00**	**-50,29%**

Derivativlar bozori

Mazkur bozorda hisob-kitobli fyucherslar, ya’ni bitim tuzilgan kundagi spot kursi va bitimning oxirgi kundagi kursi o‘rtasidagi farq to‘lab berilishi belgilangan shartnomalar savdosi joriy etilgan. Fyuchers shartnomalari bilan savdolar ikkitomonlama uzluksiz (metching) usulida «Rhombus derivatives» savdo platformasida amalga oshiriladi.

Valyuta fyuchers shartnomalari bo‘yicha operatsiyalar hajmini oshirish hamda likvidlikni ta’minlash maqsadida market-meykerlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, “Kapitalbank” ATB va “Ipak yo‘li” AIKBga market-meyker maqomi berildi. Shuningdek, tegishli market-meyker dasturlarida market-meykerlarning majburiyatlari va mukofotlash tartibi belgilandi.

Bugungi kunda, market-meykerlar O‘zRVB market-meykerlik dasturlarida belgilangan spred qiymatlari doirasida ham sotish, ham sotib olish bo‘yicha buyurtmalarni savdo tizimida mavjudligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, O‘zRVBda defolt holatlarini boshqarish samarali tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar doirasida defolt holati yuzaga kelganda, ya’ni O‘zRVBda tuzilgan bitimlar bo‘yicha majburiyatlar o‘z vaqtida bajarilmagan holda majburiyatlar bajarilishini ta’minlash maqsadida O‘zRVB mablag‘lari hisobidan kafolat jamg‘armasi tuzildi.

Hisobot davrida derivativlar bozorida 0,5 mln.AQSh dollarlik 500 ta valyuta fyuchers shartnomasi tuzildi.

O‘zRVB - respublikaning eng yirik va ko‘p funksiyali birja platformasi, savdo maydonlari, hisob-kitob va kliring tizimi hamda depozitariyni o‘z ichiga olgan noyob integratsiyalashgan tizim bo‘lib, valyuta, pul va muddatli bozorlarda, shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlari bozorida birja savdolari tashkilotchisi hisoblanadi.